

---

**Bayram tadbirlari davom etmoqda**

Qo'shtepa tumani Tibbiyot birlashmasi tomonidan o'tkazilgan Yangi yil bayrami tadbirida 300 nafardan ortiq tibbiyot xodimlari farzandlari bilan ishtirok etdilar.

Tadbir davomida ishtirokchilarga "Qorbobolar karvoni" loyihasi doirasida taqdim etilgan tomoshalar bayramga o'zgacha fayz kiritib, bolajonlar quvonchiga quvonch ularashdi.

Tadbirni Tibbiyot birlashmasi boshlig'i O.Murodov ochib berib, barcha ishtirokchilarni kirib kelayotgan Yangi yil bilan muborakbod etdi. Shundan so'ng tuman Madaniyat bo'limi xodimlari tomonidan tayyorlangan bayram spektakli taqdim etildi.

Bolajonlar o'zlarining ertak qahramonlarini jonli tarzda maroq bilan tomosha qildilar. Tadbir yakunida Qorbobo boshchiligidagi ertak qaxramonlari barcha ishtirokchi bolajonlarga kasaba uyushma qo'mitasining "Yangi yil" sovg'alarini ularashdilar.

2024-12-28 20:56:11